O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kiyik go‘shti standarti. Tanasi va go‘sht nimtalari

(UNECE Standard for Deer Meat – Carcases and Cuts:2013, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart “UNECE Standard for Deer Meat – Carcases and Cuts-2013” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Standart Ishchi guruhining tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirishga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Standartlardan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, import qiluvchilar, eksport qiluvchilar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ular yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini qamrab oladi.

Standartning qishloq xo‘jaligi standartlari to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlar bilan uning rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.

Mazkur «Kiyik go‘shti. Tana go‘shtlari va nimtalari» standarti nashri ECE/TRADE/C/WP.7/2013/6 hujjati asosida tayyorlangan.

Ushbu nashrda qo‘llanilgan nomlanishlar va materiallarning taqdim etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyati tomonidan biror-bir mamlakat, hudud, shahar yoki boshqa hududning yoxud ularning vakolatli organlarining huquqiy maqomi, shuningdek ularning chegaralari yoki hududiy chegaralarini belgilash masalalari yuzasidan hech qanday fikr yoki munosabat bildirilayotganini anglatmaydi. Kompaniyalar nomlari yoki tijorat mahsulotlarining tilga olinishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ularni ma’qullash yoki tavsiya etishni anglatmaydi.

Mazkur nashrdagi barcha materiallardan erkin iqtibos keltirish yoki ularni qayta chop etish mumkin, biroq manbaga havola berilishi so‘raladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

MINNATDORCHILIK

Standart BMT Yevropa Komissiyasi ushbu nashrni ishlab chiqish jarayonida quyidagi delegatsiyalarning qo‘shgan hissasini alohida e’tirof etadi: Avstraliya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Fransiya, Polsha, Rossiya Federatsiyasi va Amerika Qo‘shma Shtatlari.

Shuningdek, ushbu nashrni tayyorlashda Tovarlarni avtomatik identifikatsiyalash xalqaro tizimi tashkiloti hamda Yevropa Ittifoqidagi Parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash va savdosi uyushmasi vakillari ham ishtirok etganlar.

Standart, BMT Yevropa Komissiyasi ayniqsa, ushbu standartning dastlabki loyihasini tayyorlagani va fotosuratlarni taqdim etgani uchun Rossiya Federatsiyasi delegatsiyasiga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kiyik go‘shti standarti. Tanasi va go‘sht nimtalari

Стандарт для оленины. Туши и отрубы

Standard for deer meat – carcases and cuts

Amalga kiritish sanasi 1.08.2026

1 Kirish

1.1 BMTning Go‘sht mahsulotlari bo‘yicha standartlari

Go‘sht mahsulotlari bo‘yicha BMT standartlarining maqsadi xaridor va sotuvchi o‘rtasida foydalanish uchun xalqaro tilni tavsiya etish orqali savdoni yengillashtirishdan iborat. Ushbu til xalqaro savdoda keng qo‘llaniladigan go‘sht mahsulotlarini tavsiflaydi hamda aloqa va elektron savdo uchun kodlash tizimini belgilaydi. Matnlar muntazam ravishda yangilanib borilishi sababli, qo‘shimcha mahsulotlarni kiritish zarur deb hisoblaydigan yoki amaldagi mahsulot tavsiflari noto‘g‘ri, eskirgan yoki endilikda savdoda qo‘llanilmayotgan deb hisoblaydigan go‘sht sanoati vakillari BMT kotibiyatiga murojaat qilishga da’vat etiladi.

Mazkur nashr matni BMT Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan seksiyasi rahbarligida ishlab chiqilgan. BMT tomonidan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan standartlar turkumining bir qismi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda BMT standartlari mavjud bo‘lgan yoki ishlab chiqilishning turli bosqichlarida bo‘lgan go‘sht turlari hamda BMT go‘sht kodida foydalanish uchun ularga biriktirilgan kodlar keltirilgan (4-bo‘limga qarang).

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Go‘sht turi	BMT bo‘yicha tur kodi (4-bo‘limga qarang)
Qoramol go‘shti (mol go‘shti)	10
Qoramol go‘shti (buzoq go‘shti)	11
Kiyik go‘shti	20
Cho‘chqa go‘shti	30
Qo‘y go‘shti	40
Echki go‘shti	50
Lama go‘shti	60
Alpaka go‘shti	61
Tovuq go‘shti	70
Kurka go‘shti	71
O‘rdak go‘shti	72
G‘oz go‘shti	73
Quyon go‘shti	74
Ot go‘shti	80
Iste’molga yaroqli go‘sht qo‘shimcha mahsulotlari	90
Chakana savdo uchun go‘sht nimtalari	91

Nashrga oid qo‘shimcha ma’lumotlar bilan www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.

Mazkur veb-saytda, shuningdek, kodlash tizimining tavsifi hamda Standart kodini joriy etish uchun mo‘ljallangan maxsus identifikatsiya belgisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham keltirilgan.

1.2 Qo‘llanish doirasi

Mazkur standart inson iste’moli uchun yaroqli deb e’tirof etilgan, bozorda realizatsiya qilinadigan barcha kiyik turlarining (masalan, shimol bug‘usi, elik, los va boshqalar) xom (qayta ishlanmagan) tana go‘shtlari va nimtalari uchun xalqaro atamalar tizimini tavsiya etadi. Mazkur standart xaridorlarga go‘sht bilan ishlov berish, qadoqlash va muvofiqligini baholash bo‘yicha turli variantlarni taqdim etadi. Ushbu variantlar xalqaro savdoda sotishga mo‘ljallangan go‘sht va go‘sht mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladigan ilg‘or tijorat amaliyoti talablariga mos keladi.

Kiyik tana go‘shtlari va ularning qismlarini xalqaro chegaralar orqali realizatsiya qilishda oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda veterinariya nazorati bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishi lozim..Mazkur standart boshqa hujjatlar bilan tartibga solinadigan ushbu masalalarni belgilab bermaydi. Shu sababli, standartning barcha bandlarida bunday qoidalar milliy yoki xalqaro qonunchilik yoxud import qiluvchi mamlakat talablari asosida belgilanadi.

Mazkur standart jo‘natilgandan keyin mahsulot sifatini saqlab qolish hamda oziq-ovqat gigiyenasi, tamg‘alash va ushbu standart doirasiga kirmaydigan boshqa masalalar bo‘yicha hukumatlar uchun tavsiyalar berishga qaratilgan boshqa xalqaro bitimlar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalarni o‘z ichiga oladi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya talablariga oid xalqaro asosiy hujjat sifatida Kodeks Alimentarius Komissiyasining, yo‘riqnomalari va amaliyot kodekslariga murojaat qilinishi lozim. Mazkur komissiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti huzurida oziq-ovqat standartlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan yordamchi organ hisoblanadi.

1.3 Qo‘llanishi

Yetkazib beruvchilar shartnoma va texnik shartlarda belgilangan barcha talablar bajarilishiga javobgardirlar hamda ushbu talablarga muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan sifat nazorati tizimini joriy etishlari tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mahsulotlarning mazkur batafsil talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida xaridorlar mahsulotning xaridor tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun mustaqil va xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Mazkur standart qoidalarni tushunishni osonlashtirish hamda uning xalqaro savdoda keng qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida tana go‘shtlari va ayrim tijorat nimtalarining tasviriy fotosuratlarini o‘z ichiga oladi.

1.4 Qabul qilinishi va nashr etilishi tarixi

Kiyik go‘shti bo‘yicha standart 2013-yilda nashr etilgan hamda Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruhning 2013-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan oltmish to‘qqizinchi sessiyasida qabul qilingan (ECE/TRADE/C/WP.7/2013/6 hujjati).

Mazkur standart boshqa standartlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida beshta bo‘limga ajratilgan bo‘lib, ular umumiy talablar, kiyik go‘shtiga qo‘yiladigan maxsus talablar hamda tana go‘shtlari va nimtalarning tavsiflarini o‘z ichiga oladi.

BMT Go‘sht bo‘yicha standartlari nashr etilganidan uch yil o‘tgach to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi.

Qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, zarurat tug‘ilganda yangi tahrirdagi nashrlar chop etiladi. Zudlik bilan e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirishlar Standartning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

2 Majburiy talablar

Barcha go‘shtlar oziq-ovqat xavfsizligi va inspeksiya bo‘yicha amaldagi normativ talablar asosida muntazam faoliyat yurituvchi so‘yish korxonalarida so‘yilgan hayvonlardan olinishi lozim.

Tanasi va go‘sht nimtalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

— taqdim etish shakli hisobga olingan holda butun bo‘lishi;

— ko‘rinib turgan qon ivindilari yoki suyak changidan xoli bo‘lishi;

— ko‘rinib turgan har qanday begona aralashmalardan (masalan, tuproq, yog‘och yoki metall zarralari) xoli bo‘lishi[1];

— yoqimsiz hidlardan xoli bo‘lishi;

— yaqqol ko‘rinadigan qon dog‘laridan xoli bo‘lishi;

— ko‘rsatilmagan chiqib turgan yoki singan suyaklardan xoli bo‘lishi;

— lat yeyish izlaridan xoli bo‘lishi;

— muzlatish[2] natijasida yuzada hosil bo‘ladigan qurish va rang o‘zgarishi nuqsonlaridan xoli bo‘lishi;

— orqa miya to‘qimasidan xoli bo‘lishi (butun, ikkiga ajratilmagan tana go‘shtlari bundan mustasno).

Nimtalarni bo‘laklash, tozalash va suyaksizlantirish ishlari nimtaning butunligi va identifikatsiyasini saqlab qolish hamda mushak to‘qimasida kesik va tirnalishlar hosil bo‘lishining oldini olish uchun yetarli darajadagi ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.

---

1 Xaridor tomonidan belgilangan hollarda, go‘sht mahsulotlari metall zarrachalarining mavjudligini aniqlash uchun nazoratdan o‘tkaziladi.

2 Muzlatish natijasida yuzaga keladigan kuyish (freezer-burn) — bu mahsulot yuzasining qaytarib bo‘lmaydigan mahalliy yoki keng tarqalgan suvsizlanish holati bo‘lib, u qisman yoki butun yuzada dastlabki rangning o‘zgarishi (odatda oqarishi) va/yoki taktil xususiyatlarining o‘zgarishi (quruq, g‘ovaksimon holatga kelishi) bilan tavsiflanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQ7ZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yirtiq va notekis chetlar mushak to‘qimasi yuzasiga yaqin joydan olib tashlanishi lozim.

Tabiiy anatomik choklar bo‘ylab ajratilgan nimtalardan tashqari, barcha ko‘ndalang kesim yuzalari teri yuzasiga taxminan to‘g‘ri burchak ostida bo‘lishi lozim.

Qo‘shni nimtaga tegishli mushak to‘qimasi, yog‘ yoki suyakning oz miqdorda bo‘laklari nimtada qolishiga yo‘l qo‘yiladi.

Suyaksiz nimtalarda barcha suyaklar, tog‘aylar va yuzada ko‘rinib turgan limfa tugunlari olib tashlangan bo‘lishi lozim.

3 Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar

Quyidagi kichik bo‘limlarda xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan talablar hamda BMTning kiyik go‘shti kodida (4-bo‘limga qarang) qo‘llaniladigan kodlar keltirilgan.

3.1 Qo‘shimcha talablar

Kodda nazarda tutilmagan (masalan, 9-kod — «boshqa» qo‘llanilganda) yoki mahsulot yoxud qadoqlash tavsifiga qo‘shimcha aniqlik kiritadigan xaridor tomonidan belgilangan qo‘shimcha talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi hamda tegishli tartibda hujjatlashtirilishi lozim.

3.2 Turi

1.1-bo‘limda belgilanganidek, 1-ma’lumot maydonida kiyik go‘shti uchun kod 20 hisoblanadi.

3.3 Mahsulot/nimta

2-ma’lumot maydonidagi to‘rt xonali mahsulot kodi 5-bo‘limda belgilangan.

3.4 Sovitish

Go‘sht sovutilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan holda yetkazib berilishi mumkin. Qo‘llanilgan sovitish usuliga qarab mahsulot massasiga ruxsat etiladigan chetlanishlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim.

Ta’minot zanjirining barcha bosqichlarida atrof-muhit harorati mahsulotning ichki harorati quyidagi darajalarda bir xilda saqlanishini ta’minlashi kerak.

Sovitish kodi (4-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	—
1	Sovutilgan	So‘yishdan keyingi sovitish jarayoni yakunlangandan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo –1,5 °C dan past bo‘lmagan va +7 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanishi kerak.
2	Muzlatilgan	Muzlatilgandan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo –12 °C dan yuqori bo‘lmasligi kerak.
3	Chuqur muzlatilgan	Muzlatilgandan so‘ng mahsulotning ichki harorati doimo –18 °C dan yuqori bo‘lmasligi kerak.
4–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	—
9	Boshqa	—

3.5 Ishlab chiqarish tarixi

3.5.1 Kuzatuvchanlik

Xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish tarixiga oid talablar kuzatuvchanlik tizimlarining mavjud bo‘lishini talab etadi.

Kuzatuvchanlik ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida kiyiklar, tana go‘shtlari, qutilar va nimtalarni identifikatsiyalashning tekshirilishi mumkin bo‘lgan usulini nazarda tutadi.

Agar kuzatuvchanlik tartib-taomili qo‘llanilsa, u 3.11-bo‘limda ko‘rsatilgan muvofiqlikni baholash organi tomonidan belgilangan bo‘lishi kerak.

STANDARTLASHTIRISH AGENTLIGI AGENTSTVO PO STANDARTIZATSII QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.5.2 Kiyik toifasi

Toifa kodi (3-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	Muayyan toifa belgilanmagan
1	Voyaga yetgan erkak kiyik	Jinsiy organlari to‘liq rivojlangan. Yoshi: 24 oydan katta
2	Voyaga yetgan urg‘ochi kiyik	Jinsiy organlari to‘liq rivojlangan. Yoshi: 24 oydan katta
3	Yosh jinsiy yetilgan erkak kiyik	Jinsiy organlari to‘liq rivojlangan. Yoshi: 12 oydan 24 oygacha
4	Yosh jinsiy yetilgan urg‘ochi kiyik	Jinsiy organlari to‘liq rivojlangan. Yoshi: 12 oydan 24 oygacha
5	Kiyik (yoki kiyik bolasi)	Yoshi: 4 oydan 12 oygacha
6	Yosh kiyik (yoki yosh kiyik bolasi)	Yoshi: 14 kundan 4 oygacha
7	Belgilanmagan	—
8–9	Boshqa	—

3.5.3 Yetishtirish tizimi

Xaridor yetishtirish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham ishlab chiqarish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar bunday talablar mavjud bo‘lmasa, eksport qiluvchi mamlakatning talablari qo‘llaniladi.

Yetishtirish tizimi kodi (6-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	—
1	Yaylovda yetishtirish tizimi	Hayvon umrining katta qismi davomida tabiiy ozuqa bazasidan cheklanmagan foydalanishni nazarda tutuvchi yetishtirish usullari
2	Cheklangan yaylovda boqish	Hayvon umrining katta qismi davomida tabiiy ozuqa bazasidan cheklanmagan foydalanish hamda tez o‘sishni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha oziqlantirishni nazarda tutuvchi yetishtirish usullari
3	Organik yetishtirish tizimi	Xalqaro standartlarga yoki, agar ular yanada qat’iyroq bo‘lsa, milliy standartlarga muvofiq yetishtirish usullari
4	Tabiiy sharoitlarda	Kiyiklarning tabiiy yashash muhitida, butun umri davomida tabiiy ozuqa bazasidan cheklanmagan foydalanish sharoitida va inson aralashuvisiz boqilishi
5–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	—
9	Boshqa tizimlar	—

3.5.4 Oziqlantirish tizimi

Xaridor oziqlantirish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham oziqlantirish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar bunday talablar mavjud bo‘lmasa, oziqlantirish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim.

Oziqlantirish tizimi kodi (7(a)-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	—
1	Tabiiy oziqlantirish	Yaylov ozuqasiga asoslangan oziqlantirish tizimi
2	Don bilan oziqlantirish	Donli ozuqaga asoslangan oziqlantirish tizimi
3	Ozuqabop o‘simliklar bilan oziqlantirish	Ozuqabop o‘simliklarga asoslangan oziqlantirish tizimi
4–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	—
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan har qanday turdagi oziqlantirish tizimini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

1-izoh: Xaridor sotuvchidan hayvonlarga berilgan aralash yemlar va tarkibiy qismlar (ozuqa yoki dori vositalari sifatida qo‘llanilgan) ro‘yxatini taqdim etishni talab qilishi mumkin.

3.5.5 So‘yish tizimi

Toifa kodi (8-ma’lumot maydoni)	**Toifa**	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan	—
1	An’anaviy	Qon chiqarishdan oldin hayvonni hushsizlantirish amalga oshiriladi
2	Kosher	Tegishli diniy marosimlarga muvofiq so‘yish tartib-taomillari qo‘llaniladi
3	Halol	Tegishli diniy marosimlarga muvofiq so‘yish tartib-taomillari qo‘llaniladi
4	Otib ovlash	Tijorat maqsadidagi ov jarayonida so‘yish
5–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	—
9	Boshqa	So‘yishning boshqa har qanday tan olingan usuli xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim

3.5.6 So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi

So‘yishdan keyingi ishlov berish kodlari (9-ma’lumot maydoni)	**Toifa**	**Tavsifi**
0	Belgilanmagan	—
1	Aniq belgilangan	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi belgilangan
2–9	Kodlar qo‘llanilmaydi	—

1-izoh Yuqori xavfli materiallarni olib tashlash: muayyan bozor talablari orqa miya hamda asab va limfa to‘qimalarini olib tashlash bo‘yicha talablarni belgilaydi. Orqa miyani olib tashlash bo‘yicha talablar tana go‘shti yoki nimtaning qaysi texnologik bosqichida orqa miya olib tashlanishi lozimligini ko‘rsatadi. Agar olib tashlash talab etilsa, orqa miya to‘liq olib tashlanishi kerak.

2-izoh Quyidagi ro‘yxatda xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi mumkin bo‘lgan ayrim keng tarqalgan so‘yishdan keyingi ishlov berish jarayonlari keltirilgan. Ushbu talablar kiyik go‘shti bo‘yicha Standartning kodlash tizimiga kiritilmagan.

— tana go‘shtiga ishlov berish talablari;
— elektr bilan stimulyatsiyalash;
— tana go‘shtini osib qo‘yish usuli;
— bo‘yin qismini bog‘lash;
— sovitish rejimlari;
— yetiltirish jarayoni.

3.6 Yog‘ miqdori bo‘yicha cheklovlar va ayrim nimtalarda yog‘ qalinligini baholash

3.6.1 Yog‘ qalinligi

Xaridor tana go‘shtlari, yarim tana go‘shtlari va nimtalardagi yog‘ning eng katta qalinligini belgilashi mumkin. Yog‘ miqdori bo‘yicha ruxsat etiladigan cheklovlar quyidagicha:

Yog‘ qalinligi kodi (10-ma’lumot maydoni)	**Toifa**
0	Belgilanmagan
1	Yuzaki yog‘i, biriktiruvchi to‘qimasi va yuzaki pardasi olib tashlangan
2	Yuzaki yog‘i va biriktiruvchi to‘qimasi olib tashlangan
3	0 mm dan 3 mm gacha yoki belgilangan qiymat bo‘yicha

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

4	6 mm dan 9 mm gacha yoki belgilangan qiymat bo‘yicha
5	9 mm dan 12 mm gacha yoki belgilangan qiymat bo‘yicha
6	12 mm dan 15 mm gacha yoki belgilangan qiymat bo‘yicha
7	15 mm va undan ortiq yoki belgilangan qiymat bo‘yicha
8	Boshqa toifalar
9	Kod qo‘llanilmaydi


3.6.2 Yog‘ni qatlami va yog‘ qalinligini baholash

Tashqi yog‘ qatlami ostidagi mushak yuzasi konturi bo‘ylab silliq tarzda olib tashlanishi lozim. Faqat yog‘ qatlami chetlarini qiyalatib kesish, agar tashqi yuzalarni to‘liq qatlami talab etilgan bo‘lsa, ularning to‘liq qatlamlanganligini anglatmaydi.

Yog‘ qalinligiga qo‘yiladigan talablar xaridor tomonidan belgilanganidek, yuzaki yog‘ga (nimtaga nisbatan teri osti va/yoki tashqi yog‘) hamda qatlamlararo (mushaklararo) yog‘ga (mar-marsimon yog‘lanish) nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Yog‘ni qatlami bo‘yicha cheklovlarni tavsiflash uchun quyidagi ikki ta’rif qo‘llaniladi:

- Bir nuqtadagi eng katta yog‘ qalinligi. Nimtaning yog‘ qatlami eng qalin bo‘lgan qismi ko‘z bilan aniqlanadi va aynan shu nuqtadagi yog‘ qalinligi o‘lchanadi;
- O‘rtacha (arifmetik o‘rtacha) yog‘ qalinligi. Yuzaki yog‘ mavjud bo‘lgan qismlard-agi yog‘ qalinligi ko‘z bilan aniqlanadi va bir necha nuqtalarda o‘lchovlar amalga oshiriladi. O‘rtacha yog‘ qalinligi ushbu o‘lchovlar natijalarining arifmetik o‘rtacha qiymatini hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.



1-rasm

Yog‘ qalinligining (chuqurligining) amaldagi o‘lchovlari nimtalar chetlarida, ustki yog‘ qatlamini zond yordamida teshib ko‘rish yoki kesib ochish orqali amalga oshiriladi. Bunda yog‘ning haqiqiy qalinligi aniqlanishi hamda o‘lchov natijasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday tabiiy botiqlik yoki mushaklararo qatlam hisobga olinishi lozim.

Agar mushakda tabiiy botiqlik mavjud bo‘lsa, faqat kengligi 19 mm (0,75 dyuym) dan ortiq bo‘lgan botiqlik qismi ustidagi yog‘ hisobga olinadi (bu usul ko‘prik hosil qilish usuli deb ataladi; 1-rasmga qarang).

Agar qo‘shni mushaklar orasida yog‘ qatlami mavjud bo‘lsa, faqat tegishli mushaklar sathi-dan yuqorida joylashgan yog‘ qatlami o‘lchanadi (bu usul tekislash usuli deb ataladi; 1-rasmga qarang).

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Biroq, yog‘ miqdori bo‘yicha cheklovlar yuzaki yog‘i va biriktiruvchi to‘qimasi olib tashlangan[3] yoki yuzaki yog‘i, biriktiruvchi to‘qimasi hamda yuzaki pardasi olib tashlangan nimtalar uchun belgilangan bo‘lsa, mushakdagi tabiiy botiqlik ustidagi yog‘ni hamda qo‘shni mushaklar orasida joylashgan yog‘ni baholashda ko‘prik hosil qilish usuli qo‘llanilishi lozim.

3.7 Kiyik go‘shti sifatini tasniflash tizimlari

Kodlash tizimi xaridorga qaysi tasniflash tizimidan foydalanilishini belgilash imkonini beradi.

Kiyik go‘shti sifatini tasniflash tizimi kodi (11-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	—
1	Aniq belgilangan	Muayyan mamlakatlarning tasniflash tizimlari to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni tegishli standartlashtirish organlaridan olish mumkin

3.8 Tana go‘shtlari va nimtalarning massa oraliqlari

Massa oralig‘i kodi (12-ma’lumot maydoni)	Toifa	Tavsifi
0	Belgilanmagan	—
1	Belgilangan	Talab etilgan massa oralig‘i
2–9	Kodlar qo‘llanilmaydi	—

3.9 Qadoqlash, saqlash va tashish

3.9.1 Tavsifi va qoidalar

Birlamchi qadoq mahsulotning bevosita qoplamasi hisoblanadi va u oziq-ovqat mahsulotlari bilan bevosita aloqada bo‘lish uchun yaroqli materiallardan tayyorlangan bo‘lishi lozim.

Ikkilamchi qadoq birlamchi qadoqqa joylangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi.

Saqlash va tashish jarayonida go‘sht kamida quyidagi talablarga muvofiq qadoqlanishi kerak.

Tana go‘shtlari va chorak tana go‘shtlari:

— sovutilgan, qadoqlangan yoki qadoqlanmagan holda;

— muzlatilgan/chuqur muzlatilgan va mahsulotni himoya qiladigan tarzda qadoqlangan holda.

Sovutilgan nimtalar:

— alohida o‘ralgan;

— guruhlangan holda qadoqlangan (plastmassa yoki mum bilan qoplangan idishlarda);

— vakuum ostida qadoqlangan;

— modifikatsiyalangan gaz muhitida qadoqlangan;

— boshqa usullarda qadoqlangan.

Muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan nimtalar:

— alohida o‘ralgan;

— guruhlangan holda qadoqlangan (plastmassa yoki mum bilan qoplangan idishlarda);

— vakuum ostida qadoqlangan;

— Boshqa.

---

[3] Terisi shilib tozalangan/sirti tozalangan (peeled/denuded) — «terisi shilib tozalangan» atamasi yuzaki yog‘ va mushaklar tabiiy ajralish chiziqlari bo‘ylab ajratilganligini anglatadi, bunda hosil bo‘lgan nimtaning ajralish yuzasi («kumushsimon» yoki «ko‘kimtir» parda) ochiq holatda bo‘ladi hamda qolgan «parchasimon» yog‘ning eng katta o‘lchami 1,0 dyuymdan (2,5 cm) va istalgan nuqtadagi chuqurligi 0,125 dyuymdan (3 mm) oshmasligi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI (QOZZRDSEXM) 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

«Sirti tozalangan» atamasi esa barcha yuzaki yog‘lar olib tashlanganligini anglatadi, bunda hosil bo‘lgan nimtaning ajralish yuzasi («kumushsimon» yoki «ko‘kimtir» parda) ochiq holatda bo‘ladi hamda qolgan «parchasimon» yog‘ning istalgan o‘lchami 1,0 dyuymdan (2,5 cm) va istalgan nuqtadagi chuqurligi 0,125 dyuymdan (3 mm) oshmasligi lozim.

Jo‘natishdan oldingi saqlash sharoitlari va tashishda foydalaniladigan uskunalar go‘shtning fizik holatiga, ayniqsa uning harorat holatiga (sovutilgan, modifikatsiyalangan gaz muhitida sovutilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan) mos bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish va bunday tashishlarda qo‘llaniladigan maxsus uskunalar to‘g‘risidagi Standart Bitimi (ATP) qoidalariga e’tibor qaratiladi.

---

[4] Pardalangan/to‘liq yog‘sizlantirilgan, sirt pardasi olib tashlangan — Sirt pardasi **(“**silver**”** yoki **“**blue tissue”) olib tashlanishi (shilinishi) talab etilganda, hosil bo‘lgan kesim yuzasida kamida 90 % yog‘siz mushak to‘qimasi ochiq bo‘lishi kerak. Qolgan parcha yog‘ qatlami esa istalgan nuqtada **0**,125 dyuym (3 mm) chuqurlikdan oshmasligi lozim.

3.9.2 Qadoqlash kodi

Qadoqlash kodi (13-ma’lumot maydoni)	Toifa
0	Belgilanmagan
1	Tana go‘shtlari, yarim tana go‘shtlari va chorak tana go‘shtlari — qadoqlanmagan
2	Tana go‘shtlari, yarim tana go‘shtlari va chorak tana go‘shtlari — qadoqlangan
3	Nimtalar — alohida o‘ralgan
4	Nimtalar — guruhlangan holda qadoqlangan (plastmassa yoki mum bilan qoplangan idishlarda)
5	Nimtalar — vakuum ostida qadoqlangan
6	Nimtalar — modifikatsiyalangan gaz muhitida qadoqlangan
7–8	Kodlar qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

3.10 Go‘shtning savdo birliklariga qo‘yiladigan yoki biriktiriladigan tamg‘a ma’lumotlari

Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga zarar yetkazmagan holda, quyidagi jadvalda qadoqlanmagan tana go‘shtlari, chorak tana go‘shtlari va nimtalar hamda qadoqlangan yoki oldindan qadoqlangan go‘sht mahsulotlari uchun mahsulot yorliqlarida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar («X» belgisi bilan ko‘rsatilgan) keltirilgan.

Tamg‘a ma’lumotlari	Qadoqlanmagan tana go‘shtlari, chorak tana go‘shtlari va nimtalar	Qadoqlangan yoki oldindan qadoqlangan go‘sht
Veterinariya tamg‘asi	X	X
So‘yish raqami yoki to‘p raqami	X	X
So‘yilgan sana	X	—
Qadoqlangan sana	—	X
Mahsulot nomi	X	X
Mamlakat talablariga muvofiq iste’mol qilish muddati to‘g‘risidagi ma’lumot	X	X
Saqlash usuli: sovutilgan, muzlatilgan, chuqur muzlatilgan	X	X

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Saqlash sharoitlari	X	X
Qadoqlovchi yoki chakana sotuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar	X	X
Miqdori (birliklar soni)	X	X
Sof massa	X	X

Boshqa mahsulotga oid ma’lumotlar

Ishlab chiqaruvchilar import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan talablarga muvofiq, xaridorning talabiga ko‘ra yoki o‘z tashabbuslari bilan mahsulot yorlig‘iga boshqa ma’lumotlarni ham kiritishlari mumkin. Bunday har qanday ma’lumot monitoring qilinishi lozim (shuningdek, 3.5.1-bandga qarang).

Bunday ma’lumotlarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

— tug‘ilgan mamlakat;

— yetishtirilgan mamlakat(lar);

— so‘yilgan mamlakat;

— qayta ishlangan/go‘shtni nimtalarga ajratish amalga oshirilgan mamlakat(lar);

— qadoqlangan mamlakat(lar);

— kelib chiqqan mamlakat: ushbu standartda «kelib chiqqan mamlakat» atamasi hayvonning tug‘ilishi, yetishtirilishi, so‘yilishi, qayta ishlanishi/nimtalarga ajratilishi va qadoqlanishi bir mamlakat hududida amalga oshirilganligini ifodalash uchun qo‘llaniladi;

— ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimlari;

— kiyiklarni yetishtirish xususiyatlari, shu jumladan oziqlantirish tizimlari;

— so‘yish tartib-taomillari;

— qayta ishlash/qadoqlash sanasi;

— sifat navi/sorti/tasnifi;

— go‘sht va yog‘ning pH ko‘rsatkichi hamda rangi.

3.11 Muvofiqlikni baholash talablariga doir qoidalar

Xaridorlar mahsulotning o‘zlari belgilagan ko‘rsatkichlarga, standartlarga va/yoki hayvonlarni identifikatsiyalash talablariga muvofiqligini uchinchi tomon tomonidan baholatishni talab qilishlari mumkin.

Muvofiqlikni baholashning alohida turlari yoki ularning kombinatsiyalari quyidagicha tanlanishi mumkin:

Sifat/nav/tasnif bo‘yicha muvofiqlikni baholash (sifat): uchinchi tomon mahsulotni tekshiradi va mahsulot talab etilgan sifat darajasiga mosligini tasdiqlaydi. Foydalaniladigan vakolatli uchinchi tomon sertifikatlashtirish organi hamda sifatni baholash standarti 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim.

Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash (savdo standarti): uchinchi tomon mahsulotni tekshiradi va mahsulot ushbu savdo standartida belgilangan, xaridor tomonidan ko‘rsatilgan talablarga, sifat darajasi bundan mustasno, muvofiqligini tasdiqlaydi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim. Zarur hollarda xaridor sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan aniq talablarni uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomidan keyin ko‘rsatishi mumkin.

Hayvon yoki to‘pni identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash (hayvon/to‘p identifikatsiyasi): uchinchi tomon mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi hamda qo‘llaniladigan talablar 3.1-bandda ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

[5] Ushbu ma’lumot ilova qilinadigan hujjatlarda ham taqdim etilishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash kodi (14-ma’lumot maydoni)	Toifa
0	Belgilanmagan
1	Sifat/nav/tasnif bo‘yicha muvofiqlikni baholash
2	Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
3	Hayvon yoki to‘pni identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash
4	Sifat va savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
5	Sifat va hayvon yoki to‘pni identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash
6	Savdo standarti va hayvon yoki to‘pni identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash
7	Sifat, savdo standarti hamda hayvon yoki to‘pni identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash
8	Kod qo‘llanilmaydi
9	Boshqa toifalar

4 Kiyik go‘shti uchun xaridor talablarining BMT kodi

4.1 Kodning ta’rifi

Kiyik go‘shti uchun xaridor talablarining BMT kodi 14 ta maydon va 20 ta raqamdan (ulardan 3 tasi foydalanilmaydi) iborat bo‘lib, 3-bo‘limda belgilangan foydalanish kodlarining kombinatsiyasidan tashkil topadi.

T/r	Nomi	Bo‘lim	Kod diapazoni
1	Turi	3.2	20
2	Mahsulot/nimta	3.3/5	0–9999
3	Foydalanilmaydigan maydon	—	00–99
4	Sovitish	3.4	0–9
5	Toifa	3.5.2	0–9
6	Yetishtirish tizimi	3.5.3	0–9
7(a)	Oziqlantirish tizimi	3.5.4	0–9
7(b)	Foydalanilmaydigan maydon	—	0–9
8	So‘yish usuli	3.5.5	0–9
9	So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi	3.5.6	0–9
10	Yog‘ qalinligi	3.6.1	0–9
11	Kiyik go‘shti sifatini tasniflash tizimi	3.7	0–1
12	Massa oralig‘i	3.8	0–9
13	Qadoqlash	3.9.2	0–9
14	Muvofiqlikni baholash	3.11	0–9

4.2 Misol

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Quyidagi misolda organik usulda yetishtirilgan, an’anaviy usulda so‘yilgan yosh jinsiy yetilgan erkak kiyikdan olingan, suyakli bel qismi nimtasi, sovutilgan va vakuum ostida qadoqlangan hamda yog‘ning eng katta qalinligi 3 mm bo‘lgan mahsulot tavsiflangan.

Mazkur mahsulot uchun BMT kodi quyidagicha bo‘ladi: 20912100133101040050

T/r	Nomi	Talab	Kod qiymati
1	Turi	Kiyik	20
2	Mahsulot/nimta	Suyakli bel qismi nimtasi	9121
3	Foydalanilmaydigan maydon	—	00
4	Sovitish	Sovutilgan	1
5	Toifa	Yosh jinsiy yetilgan erkak kiyik	3
6	Yetishtirish tizimi	Organik	3
7(a)	Oziqlantirish tizimi	Tabiiy	1
7(b)	Foydalanilmaydigan maydon	—	0
8	So‘yish usuli	An’anaviy	1
9	So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi	Belgilanmagan	0
10	Yog‘ qalinligi	Yog‘ning eng katta qalinligi 3 mm	4
11	Kiyik go‘shti sifatini tasniflash tizimi	Belgilanmagan	0
12	Massa oralig‘i	Belgilanmagan	0
13	Qadoqlash	Vakuum ostida qadoqlangan	5
14	Muvofiqlikni baholash	Belgilanmagan	0

5 Tana go‘shtlari va nimtalarning tavsifi

5.1 Mahsulotlarning ko‘p tilli ko‘rsatkichi

O‘zbekcha nomi	Mahsulot kodi	Ruscha nomi	Inglizcha
Suyakli	—	На кости	Bone-in
Butun tana go‘shti	9000	ЦЕЛАЯ ТУША	Carcass
Oyoqlari buklangan tana go‘shti	9001	СЛОЖЕННАЯ ТУША	Telescoped carcass
Yarim tana go‘shti	9002	ПРОДОЛЬНАЯ ПОЛУТУША	Side
Orqa chorak tana go‘shti	9110	ЗАДНЯЯ ЧЕТВЕРТИНА	Hindquarter
Orqa yarim tana go‘shti	9003	ЗАДНЯЯ ПОЛОВИНА	Hindquarter pair
Orqa qism	9004	ЗАДНЯЯ ЧАСТЬ	Pair of leg, long-cuts
Son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim	9111	ТАЗОБЕДРЕНЫЙ ОТРУБ	Leg, long-cut
Boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim	9112	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ БЕЗ ГОЛЯШКИ	Leg, long-cut/shank-off
Qisqa son-bo‘ksa nimtasi	9113	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ КОРОТКИЙ	Butt
Boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nim-tasi	9114	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ КОРОТКИЙ БЕЗ ГОЛЯШКИ	Butt/shank-off
Dumg‘aza qismi	9115	КРЕСТЦОВАЯ ЧАСТЬ	Aitchbone, surrounding muscles and other tissue
Old chorak tana go‘shti	9120	ПЕРЕДНЯЯ ЧЕТВЕРТИНА	Forequarter
Old yarim tana go‘shti	9005	ПЕРЕДНЯЯ ПОЛОВИНА	Forequarter pair
Egar qismi	9117	СЕДЛО	Saddle
Bo‘yin nimtasi	9130	ШЕЙНЫЙ ОТРУБ	Neck
Orqa-bel nimtasi	9121	СПИННО-ПОЯСНИЧНЫЙ ОТРУБ	Loin
Orqa qism nimtasi	9122	СПИННОЙ ОТРУБ	Dorsal cut

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bel nimtasi	9123	ПОЯСНИЧНЫЙ ОТРУБ	Lumbar cut
Orqa boldir nimtasi	9116	ЗАДНЯЯ ГОЛЯШКА	Hindshank
Kurak nimtasi	9124	ЛОПАТОЧНЫЙ ОТРУБ	Shoulder
Old boldirsiz kurak nimtasi	9125	ЛОПАТОЧНЫЙ ОТРУБ БЕЗ ПЕРЕДНЕЙ ГОЛЯШКИ	Shoulder/shank-off
Old boldir nimtasi	9126	ПЕРЕДНЯЯ ГОЛЯШКА	Foreshank
To‘sh va qovurg‘a nimtasi	9127	ГРУДИНО-РЕБЕРНЫЙ ОТРУБ	Brisket and rib plate
Qovurg‘a nimtasi	9128	РЕБЕРНЫЙ ОТРУБ	Rib plate
To‘sh nimtasi	9129	ГРУДНОЙ ОТРУБ	Brisket
Suyaksiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim	9211	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ	Boneless leg, long-cut
Suyaksiz, boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim	9212	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ БЕЗ ГОЛЯШКИ	Boneless leg, long-cut/shank-off
Suyaksiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi	9213	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ КОРОТКИЙ	Boneless butt
Suyaksiz, boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi	9214	ТАЗОБЕДРЕННЫЙ ОТРУБ КОРОТКИЙ БЕЗ ГОЛЯШКИ	Boneless butt/shank-off
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining qismlari	9250	ЧАСТИ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Leg, long-cut parts
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining tashqi qismi	9217	НАРУЖНАЯ ЧАСТЬ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Outer part of the leg, long-cut
Yarim payli mushak (M. semitendinosus)	9218	ПОЛУСУХОЖИЛЬНАЯ МЫШЦА	M. semitendinosus
Dumba-son ikki boshli mushagi (M. gluteobiceps)	9219	ЯГОДИЧНО-ДВУГЛАВАЯ МЫШЦА БЕДРА	M. gluteobiceps
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismi	9220	ВЕРХНЯЯ ЧАСТЬ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Upper part of the leg, long-cut
O‘rta dumba mushagi (M. gluteus medius)	9234	СРЕДНЯЯ ЯГОДИЧНАЯ МЫШЦА	M. gluteus medius
Chuqur dumba mushagi (M. gluteus profundus)	9235	ГЛУБОКАЯ ЯГОДИЧНАЯ МЫШЦА	M. gluteus profundus
Noksimon mushak (M. piriformis)	9236	ГРУШЕВИДНАЯ МЫШЦА	M. piriformis
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi	9237	ВНУТРЕННЯЯ ЧАСТЬ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Inner part of the leg, long-cut
Ustki qismi olib tashlangan uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi	9238	ВНУТРЕННЯЯ ЧАСТЬ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА БЕЗ ВЕРХУШКИ	Inner part of the leg, long-cut/cap-off
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasi ichki qismining ustki qismi	9239	ВЕРХУШКА ВНУТРЕННЕЙ ЧАСТИ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Cap of the inner part of the leg, long-cut
Uzun kesimli son-bo‘ksa nimtasining yon qismi	9240	БОКОВАЯ ЧАСТЬ ТАЗОБЕДРЕННОГО ОТРУБА	Side part of the leg, long-cut
Sonning to‘g‘ri mushagi (M. rectus femoris)	9241	ПРЯМАЯ МЫШЦА БЕДРА	M. rectus femoris
Lateral keng mushak (M. vastus lateralis)	9242	ЛАТЕРАЛЬНАЯ МЫШЦА	M. vastus lateralis
Oraliq va medial keng mushaklar (Mm. vastus intermedius et medialis)	9243	ПРОМЕЖУТОЧНАЯ И МЕДИАЛЬНАЯ МЫШЦЫ	Mm. vastus intermedius and medialis
Filey (M. iliopsoas)	9201	ВЫРЕЗКА	Tenderloin (M. iliopsoas)
Kichik bel mushagisiz filey	9202	ВЫРЕЗКА БЕЗ МАЛОЙ ПОЯСНИЧНОЙ МЫШЦЫ	Tenderloin/psoas minor off
Suyaksiz bo‘yin nimtasi	9230	ШЕЙНЫЙ ОТРУБ	Boneless neck
Suyaksiz orqa bel nimtasi	9221	СПИННО-ПОЯСНИЧНЫЙ ОТРУБ	Boneless loin

STANDARTLAR INSTITUTI HUQUQIY HIMOYASIDA - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Suyaksiz orqa qism nimtasi	9222	СПИННОЙ ОТРУБ	Boneless dorsal cut
Suyaksiz bel nimtasi	9223	ПОЯСНИЧНЫЙ ОТРУБ	Boneless lumbar cut
Suyaksiz orqa boldir nimtasi	9216	ЗАДНЯЯ ГОЛЯШКА	Boneless hindshank
Biqin nimtasi	9215	ПАШИНА	Flank
Suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasi	9225	ЛОПАТОЧНЫЙ ОТРУБ БЕЗ ПЕРЕДНЕЙ ГОЛЯШКИ	Boneless shoulder/shank-off
Yelkaning uch boshli mushagi (M. triceps brachii)	9227	ТРЕХГЛАВАЯ МЫШЦА	M. triceps brachii
O‘stki tikansimon mushak (M. supraspinatus)	9229	ПРЕДОСТНАЯ МЫШЦА	M. supraspinatus
Tikansimon osti va deltasimon mushaklar (Mm. infraspinatus et deltoideus)	9231	ЗАОСТНАЯ И ДЕЛЬТОВИДНАЯ МЫШЦЫ	Mm. infraspinatus and deltoideus
Kurak nimtasining ichki qismi (M. subscapularis va M. teres major)	9232	ВНУТРЕННЯ ЧАСТЬ ЛОПАТОЧНОГО ОТРУБА	Inner part of the shoulder (M. subscapularis and M. teres major)
Kurak nimtasining yelka qismi (M. biceps brachii va M. brachialis)	9233	ПЛЕЧЕВАЯ ЧАСТЬ ЛОПАТОЧНОГО ОТРУБА	Brachial part of the shoulder (M. biceps brachii and M. brachialis)
Suyaksiz old boldir nimtasi	9226	ПЕРЕДНЯЯ ГОЛЯШКА	Boneless foreshank
Suyaksiz to‘sh nimtasi	9228	РЕБЕРНЫЙ ОТРУБ	Boneless brisket

5.2 Kiyik yarim tana go‘shtining skelet sxemasi

Caudal	dum tomoni
Dorsal	orqa tomoni
Cranial	bosh tomoni
Ventral	qorin tomoni

5.3 Kiyik go‘shtining asosiy nimtalari sxemasi

5.4 Kiyik go‘shti nimtalari

Tana go‘shti (9000)

Tana go‘shti gavdaning barcha skelet mushaklari va suyaklarini, to‘piq bo‘g‘imi (tarsus) hamda bilak bo‘g‘imi (karpus)ni, barcha bo‘yin umurtqalarini va beshtagacha dum umurtqalarini o‘z ichiga oladi.

Yelin yoki moyaklar, jinsiy olat hamda yelin yoki urug‘don atrofi yog‘i olib tashlangan bo‘lishi lozim.

Ko‘rsatilishi lozim:

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyraklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyrak yog‘i va tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— massa oralig‘i;

— ensa boylami: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— karpus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tarsus: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Variantlar: tana go‘shti bo‘laklari — ikkitadan ortiq qismga ajratilgan tana go‘shti tana go‘shti bo‘laklari sifatida tavsiflanadi. Bunda barcha nimtalar, fileydan tashqari, saqlab qolinishi lozim.

Oyoqlari buklangan tana go‘shti (9001)

Tana go‘shtidan (9000) tayyorlanadi. Orqa chorak tana go‘shtini old chorak tana go‘shtining ko‘krak bo‘shlig‘iga buklab joylashtirish uchun beshinchi bel umurtqasi bilan birinchi dumg‘aza umurtqasi tutashgan joyda tana go‘shtining orqa qismi bo‘ylab gorizontal kesim amalga oshiriladi va umurtqa pog‘onasi ajratiladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyraklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyrak yog‘i va tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— bo‘yin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— to‘sh va biqin qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ensa boylami: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— karpus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tarsus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— massa oralig‘i.

Yarim tana go‘shti (9002)

Tana go‘shtidan (9000) tayyorlanadi. Tana go‘shti dumg‘aza, bel, ko‘krak va bo‘yin umurtqalari markazi bo‘ylab bitta uzunasiga kesim bilan ikki qismga ajratiladi. Bunda orqa miya shikastlanmasligi va keyinchalik olib tashlanishi lozim.

Ko‘rsatilishi lozim:

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyraklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyrak yog‘i va tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— karpus: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

— tarsus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— massa oralig‘i.

Orqa yarim tana go‘shti (9003)

Orqa yarim tana go‘shti tana go‘shtidan (9000) old yarim tana go‘shtini (9005) belgilangan qovurg‘a konturi bo‘ylab hamda tegishli umurtqa orqali biqinning qorin qismigacha to‘g‘ri kesim bilan ajratish yo‘li orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— orqa boldir: tuyoq qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— fileyning yuqori qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZ:RMAG:XV-1:5105:2026:O'ZBEKISTON FILEYO SELEKSIA QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

— buyrak yog‘i va tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— Axil payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Orqa qism, uzun kesimli juft nimta (9004)

Orqa qism, uzun kesimli juft nimta tana go‘shtidan oxirgi bel umurtqasi bilan birinchi dumg‘aza umurtqasi oralig‘ida, yonbosh suyagi uchini ajratib o‘tuvchi va biqinning qorin qismigacha davom etuvchi to‘g‘ri kesim orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— Axil payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— orqa boldir: tuyoq qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— fileyning yuqori qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Old yarim tana go‘shti (9005)

Old yarim tana go‘shti tana go‘shtidan (9000) orqa yarim tana go‘shtini (9003) belgilangan qovurg‘a konturi bo‘ylab hamda tegishli umurtqa orqali biqinning qorin qismigacha to‘g‘ri kesim bilan ajratish yo‘li orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— birinchi bo‘yin umurtqasi (atlas): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— karpus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— qolgan biqin qismining uzunligi: belgilanishi yoki to‘liq olib tashlanishi lozim.

Old chorak tana go‘shti (9120)

Old chorak tana go‘shti old yarim tana go‘shtini (9005) umurtqa pog‘onasi bo‘ylab ikki qismga ajratish orqali yoki yarim tana go‘shtidan (9002) belgilangan qovurg‘a konturi bo‘ylab hamda tegishli umurtqa orqali biqinning qorin qismigacha to‘g‘ri kesim bilan, old qismni orqa qismdan ajratish orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— birinchi bo‘yin umurtqasi (atlas): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— karpus: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Orqa chorak tana go‘shti (9110)

Orqa chorak tana go‘shti orqa yarim tana go‘shtini (9003) umurtqa pog‘onasi bo‘ylab ikki qismga ajratish orqali yoki yarim tana go‘shtidan (9002) belgilangan qovurg‘a konturi bo‘ylab hamda tegishli umurtqa orqali biqinning qorin qismigacha to‘g‘ri kesim bilan, orqa qismni old qismdan ajratish orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— orqa boldir: tuyoq qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— fileyning yuqori qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— buyrak yog‘i va tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— Axil payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZLPAYSXN 2026/02/26 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim (9111)

Son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim yarim tana go‘shtidan (9002) oxirgi bel umurtqasi bilan birinchi dumg‘aza umurtqasi oralig‘ida, yonbosh suyagi uchini ajratib o‘tuvchi va biqinning qorin qismigacha davom etuvchi to‘g‘ri kesim orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— orqa boldir: tuyoq qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— Axil payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim (9112)

Boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9111), boldir qismini son suyagi va katta boldir suyagi tutashgan bo‘g‘im (tizza bo‘g‘imi) bo‘yicha ajratish orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tovon mushaklari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Qisqa son-bo‘ksa nimtasi (9113)

Qisqa son-bo‘ksa nimtasi son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9111), chanoq-son bo‘g‘imidan (chanoq kosachasi) belgilangan masofada to‘g‘ri kesim amalga oshirish yo‘li bilan tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— orqa boldir: tuyoq qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— Axill payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi (9114)

Boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi qisqa son-bo‘ksa nimtasidan (9113) boldir qismini son suyagi va katta boldir suyagi tutashgan bo‘g‘im (tizza bo‘g‘imi) bo‘yicha ajratish orqali tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Dumg‘aza suyagi, unga tutash mushaklar va boshqa to‘qimalar (9115)

Dumg‘aza suyagi, unga tutash mushaklar va boshqa to‘qimalar son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9111), dumg‘aza suyagi va dum umurtqalarini ularga birikkan dum mushaklari: dum mushaklari, qo‘shimcha ko‘ndalang o‘simta yozuvchi mushaklar va bukuvchi mushaklar bilan birga ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— dum: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim (9211)

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Suyaksiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasini, uzun kesimni (9111) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Bunda yonbosh suyagi, dumg‘aza suyagi, qov suyagi va tos suyaklari, son suyagi, katta boldir suyagi, tog‘aylar hamda paylar olib tashlanadi.

Mazkur nimta son-bo‘ksa nimtasining uzun kesimli tashqi, yuqori, ichki va yon qismlaridan hamda suyaksiz boldirdan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz, boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim (9212)

Suyaksiz, boldirsiz son-bo‘ksa nimtasi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasini, uzun kesim/boldirsiz nimtani (9112) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Bunda yonbosh suyagi, dumg‘aza suyagi, qov suyagi, tos suyaklari va son suyagi olib tashlanadi.

Mazkur nimta tashqi, yuqori, ichki va yon qismlardan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biqin: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;

— yuzaki chov va yonbosh osti limfa tugunlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi (9213)

Suyaksiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi qisqa son-bo‘ksa nimtasini (9113) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Bunda dumg‘aza suyagi, qov suyagi va tos suyaklari, son suyagi, katta boldir suyagi, tog‘aylar hamda paylar olib tashlanadi. Mazkur nimta qisqa son-bo‘ksa nimtasining tashqi, ichki va yon qismlaridan hamda suyaksiz orqa boldirdan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— yuzaki chov limfa tuguni: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz, boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi (9214)

Suyaksiz, boldirsiz qisqa son-bo‘ksa nimtasi qisqa son-bo‘ksa nimtasini, boldirsiz nimtani (9114) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Bunda dumg‘aza suyagi, qov suyagi va tos suyaklari, son suyagi, tog‘aylar hamda paylar olib tashlanadi. Mazkur nimta qisqa son-bo‘ksa nimtasining tashqi, ichki va yon qismlaridan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— yuzaki chov limfa tuguni: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Son-bo‘ksa nimtasining uzun kesimli qismlari (9250)

Son-bo‘ksa nimtasining uzun kesimli qismlari suyaksiz, boldirsiz son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9212), uni belgilangan tarzda trimlangan to‘rtta nimtaga ajratish orqali tayyorlanadi.

Son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismi, uzun kesim (9220)

Son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9111), qisqa son-bo‘ksa nimtasi (9113) va biqinni (9215) katta ko‘st suyagidan (trochanter major) dumg‘aza-yonbosh boylamigacha biriktiruvchi parda bo‘ylab kesish orqali olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi. U yonbosh suyagidan ajratilgan dumba mushaklari guruhidan iborat bo‘ladi.

Mushaklarning tabiiy shaklini saqlab turuvchi yuzaki parda hamda teri osti yog‘i qoldiriladi. Ushbu nimta o‘rta dumba mushagi, chuqur dumba mushagi va noksimon mushakka ajratilishi mumkin.

Ko‘rsatilishi lozim:

STANDARTLAR INSTITUTI TASDIQLANGAN - 28.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

O‘rta dumba mushagi (M. gluteus medius) (9234)

O‘rta dumba mushagi son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismidan, uzun kesimdan (9220), tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi. Qalin, go‘shtdor uchburchak shakldagi ushbu mushak yonbosh suyagi qanotining dumba yuzasida joylashgan bo‘lib, chuqur dumba mushagini qoplaydi. U yonbosh suyagi qanotidan boshlanib, katta ko‘st suyagigacha davom etadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Chuqur dumba mushagi (9235)

Chuqur dumba mushagi son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismidan, uzun kesimdan (9220), tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi. U yonbosh suyagi va quymich suyagining tashqi yuzasidan boshlanib, katta ko‘st suyagining old qismida tugaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Noksimon mushak (9236)

Noksimon mushak son-bo‘ksa nimtasining yuqori qismidan, uzun kesimdan (9220), tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi. U dumba fastsiyasidan boshlanadi, o‘rta dumba mushagining ostida va mushak osti sinovial xaltasining ustida joylashib, katta ko‘st suyagiga birikadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Son-bo‘ksa nimtasining tashqi qismi, uzun kesim (9217)

Son-bo‘ksa nimtasining tashqi qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasidan (9211) tayyorlanadi. U son suyagiga nisbatan kaudal va medial joylashgan bo‘lib, chanoq suyagiga (dumg‘aza suyagiga) birikkan bo‘ladi. Ushbu nimta qalin biqin bilan ichki qism o‘rtasidagi tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab tovon suyagi bo‘rtig‘idan tizza bo‘g‘imi boylamigacha, so‘ngra dumg‘aza-o‘tirg‘ich boylami va quymich bo‘rtig‘ining old yuzasi yo‘nalishida ajratib olinadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— tizza osti limfa tuguni: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yog‘: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Yarim payli mushak (9218)

Yarim payli mushak son-bo‘ksa nimtasining tashqi qismidan, uzun kesimdan (9217), sonning ikki boshli mushagi (M. biceps femoris) bilan yarim payli mushak o‘rtasidagi tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi. Yarim payli mushak sonning ikki boshli mushagi ortida joylashgan bo‘lib, son suyagining lateral-kaudal qismida joylashadi. U cho‘ziq va yumaloq shaklga ega.

Ko‘rsatilishi lozim:

— yog‘: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Dumba-son ikki boshli mushagi (9219)

Dumba-son ikki boshli mushagi son-bo‘ksa nimtasining tashqi qismidan, uzun kesimdan (9217), sonning ikki boshli mushagi bilan yarim payli mushak o‘rtasidagi tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi. Dumba-son ikki boshli mushagi sonning eng yirik

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

mushagi bo‘lib, sonning kaudal qismining deyarli butun tashqi yuzasini — quymich bo‘rtig‘idan katta boldir suyagining dorsal qirrasi va tovon suyagi bo‘rtig‘igacha bo‘lgan qismni egallaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— yog‘: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi, uzun kesim (9237)

Son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasidan (9211) tayyorlanadi. Ichki dumaloq qism katta boldir suyagiga nisbatan kaudal va medial joylashgan hamda dumg‘aza suyagiga birikkan bo‘ladi. U son suyagining pastki qismidan quymich bo‘rtig‘i va dumg‘aza-o‘tirg‘ich boylami tomon tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olinadi.

Mazkur nimta yarim pardasimon mushak , yaqinlashtiruvchi mushak, tikuvchi mushak, taroqsimon mushak, ushbu mushaklarning medial tomonini qoplab turuvchi nozik mushak, egizak mushaklar, sonning kvadrat mushagi hamda tashqi va ichki yopuvchi mushaklardan iborat bo‘ladi.

Jinsiy olat atrofidagi to‘qima, tolali to‘qima, chov limfa tuguni va uning atrofidagi yog‘ olib tashlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— nozik mushak: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Ustki qismi olib tashlangan son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi, uzun kesim (9238)

Ustki qismi olib tashlangan son-bo‘ksa nimtasining ichki qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasining ichki qismidan, uzun kesimdan (9237), nozik mushakni tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olish yo‘li bilan tayyorlanadi. Yog‘ to‘planmalari to‘liq olib tashlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Son-bo‘ksa nimtasi ichki qismining ustki qismi, uzun kesim (9239)

Son-bo‘ksa nimtasi ichki qismining suyaksiz ustki qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasining ichki qismidan, uzun kesimdan (9237), tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olingan nozik mushakdan (M. gracilis) iborat bo‘ladi.

Nozik mushak qalin bo‘lib, uchburchaksimon shaklda kengayib boradi. U tos bo‘shlig‘i chokidan boshlanib, tizza kosachasi boylami va katta boldir suyagi qirrasida tugaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Son-bo‘ksa nimtasining yon qismi, uzun kesim (9240)

Son-bo‘ksa nimtasining yon qismi, uzun kesim son-bo‘ksa nimtasidan (9211) tayyorlanadi. U son suyagining old qismida joylashgan bo‘lib, sonning to‘rt boshli mushagi va sonning keng fastsiyasini taranglashtiruvchi mushakdan iborat bo‘ladi.

U tizza kosachasidan son suyagining katta ko‘st suyagigacha kesish yo‘li bilan ajratib olinadi.

Tizza kosachasi, bo‘g‘im kapsulasi va atrofdagi biriktiruvchi to‘qimalar olib tashlanadi.

Odatda sonning to‘rt boshli mushagidan to‘g‘ri, lateral, oraliq va medial keng mushaklar ajratib olinadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Sonning to‘g‘ri mushagi (9241)

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Sonning to‘g‘ri mushagi son-bo‘ksa nimtasining yon qismidan, uzun kesimdan (9240), sonning to‘rt boshli mushagidan tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olinadi.

U yonbosh suyagining qorin yuzasidagi ikki chuqurchadan pay yordamida boshlanib, tizza kosachasida tugaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Lateral keng mushak (9242)

Lateral keng mushak son-bo‘ksa nimtasining yon qismidan, uzun kesimdan (9240), sonning to‘rt boshli mushagidan tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olinadi.

U katta ko‘st suyagining asosidan boshlanib, tizza kosachasida tugaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Oraliq va medial keng mushaklar (9243)

Oraliq va medial keng mushaklar son-bo‘ksa nimtasining yon qismidan, uzun kesimdan (9240), sonning to‘rt boshli mushagidan tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab ajratib olinadi.

Oraliq keng mushak son suyagining old qismida joylashgan, medial keng mushak esa son suyagining yuqori uchdan bir qismidan boshlanib, tizza kosachasida tugaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Orqa boldir nimtasi (9116)

Orqa boldir nimtasi son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan (9111) tayyorlanadi; u boldir suyaklari (katta va kichik boldir suyaklari), tarsus, tovon suyagi hamda ularga birikkan mushaklardan iborat bo‘lib, ulardan eng yirigi ikki boshli boldir mushagi hisoblanadi.

Orqa boldir nimtasi son-bo‘ksa nimtasidan, uzun kesimdan, son suyagining pastki cheti bo‘ylab tizza bo‘g‘imi orqali (son suyagi va katta boldir suyagi orasidan) ajratiladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— tarsus: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— Axill payi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— arra bilan kesib yoki bo‘g‘im bo‘ylab ajratilganligi.

Suyaksiz orqa boldir nimtasi (9216)

Suyaksiz orqa boldir nimtasi orqa boldir nimtasini (9116) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. U orqa oyoqning bukuvchi va yozuvchi mushaklari guruhlari, ikki boshli boldir mushagi, katta boldir mushagi, kichik boldir mushaklari hamda tovon mushaklarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— pay/boylam: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Egar qismi (9117)

Egar qismi orqa yarim tana go‘shtidan (9003), orqa qism, uzun kesimli juft nimtani (9004), oxirgi bel umurtqasi bilan birinchi dumg‘aza umurtqasi oralig‘ida, yonbosh suyagi uchini ajratib o‘tuvchi va biqinning qorin qismigacha davom etuvchi to‘g‘ri kesim yordamida ajratish orqali tayyorlanadi.

Qovurg‘alar (mavjud bo‘lsa) va biqin qismi oldingi (kranial) uchidan belgilangan masofada olib tashlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biqin osilib turuvchi qismi qoldirilgan yoki olib tashlangan;

STANDARTLAR INSTITUTI #O‘ZSTANDARD - 03.02.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

— talab etiladigan qovurg‘alar soni;
— fransuzcha usulda tozalangan qovurg‘alar soni;
— fransuzcha usulda tozalash uzunligi;
— buyraklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— tos bo‘shlig‘i yog‘i: qoldirilgan, qisman olib tashlangan yoki to‘liq olib tashlangan;
— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— biqinning M. longissimus dorsi mushagidan ajratilish masofasi;
— yuzaki yog‘ni trimlash darajasi.

Bo‘yin nimtasi (9130)

Bo‘yin nimtasi tana go‘shtidan (9000) yoki old yarim tana go‘shtidan (9005) birinchi qovurg‘aga parallel ravishda va oxirgi bo‘yin umurtqasi bilan birinchi ko‘krak umurtqasi tutashgan joy orqali o‘tkazilgan to‘g‘ri kesim yordamida ajratib olinadi.

Ko‘rsatilishi lozim:
— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— bo‘yinning oxirgi qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— birinchi bo‘yin umurtqasi (atlas): qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz bo‘yin nimtasi (9230)

Suyaksiz bo‘yin nimtasi suyakli bo‘yin nimtasidan (9130) tayyorlanadi. Suyaklar, tog‘aylar va ochiq qolgan paylar olib tashlanadi. Agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ensa boylami ham olib tashlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:
— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— bo‘yinning oxirgi qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Orqa-bel nimtasi (9121)

Orqa-bel nimtasi yarim tana go‘shtidan (9002) quyidagi chegaralar bo‘yicha ajratib olinadi:
— old tomondan — belgilangan ko‘krak umurtqasi bilan unga mos qovurg‘a oralig‘idan;
— orqa tomondan — oxirgi (beshinchi) bel umurtqasi bilan birinchi dumg‘aza umurtqasi oralig‘idan, yonbosh suyagining old (kranial) cheti bo‘ylab;
— pastki tomondan — umurtqa tanasidan 70 mm masofada va umurtqa tanasiga parallel ravishda (agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa).

Ko‘rsatilishi lozim:
— qovurg‘alar soni;
— o‘tkir o‘simtalar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— qovurg‘alarning umurtqa tanasidan uzunligi;
— kurak tog‘ayining uchi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— trapetsiyasimon mushak: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— o‘tkir o‘simtalar usti boylami: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz orqa-bel nimtasi (9221)

Suyaksiz orqa-bel nimtasi orqa-bel nimtasidan (9121) o‘tkir o‘simtalar bo‘ylab ilik to‘qimasini kesib, umurtqalar va qovurg‘alarning tegishli qismlarini olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

U quyidagi mushaklarni o‘z ichiga oladi: bel va orqaning eng uzun mushaklari (Mm. longissimus lumborum et dorsi), orqaning tikansimon va yarim tikansimon mushaklari (Mm. spinalis et semispinalis dorsi), bel va orqaning ko‘p bo‘lakli mushaklari (Mm. multifidus lumborum et dorsi), bel va orqaning qovurg‘a-tikan mushaklari (Mm. iliocostalis lumborum et dorsi), katta bel mushagi (M. psoas major) va belning kvadrat mushagi (M. quadratus lumborum).

Ko‘rsatilishi lozim:

— suyaksizlantirilgan qovurg‘alar soni;

— o‘tkir o‘simtalar usti boylami (ligamentum supraspinale): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— trapetsiyasimon, rombsimon va keng orqa mushaklarining qismlari: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

— ko‘p bo‘lakli mushak (M. multifidus): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Orqa qism nimtasi (9122)

Orqa qism nimtasi orqa-bel nimtasini (9121) birinchi bel umurtqasi bilan oxirgi ko‘krak umurtqasi oralig‘ida, kesimni oxirgi qovurg‘aning orqa cheti orqali davom ettirish yo‘li bilan orqa qism nimtasi va bel nimtasiga ajratish natijasida olinadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— qovurg‘alar soni;

— o‘tkir o‘simtalar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— kurak tog‘ayi uch qismi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— qovurg‘alarning umurtqa tanasidan uzunligi;

— trapetsiyasimon, rombsimon va keng orqa mushaklarining qismlari (Mm. trapezius, rhomboideus et latissimus dorsi): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ko‘p bo‘lakli mushak (M. multifidus): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ensa boylami : qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz orqa qism nimtasi (9222)

Suyaksiz orqa qism nimtasi orqa qism nimtasidan (9122) ilik to‘qimasini kesib, umurtqalarning o‘tkir o‘simtalari va qovurg‘alarni olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— suyaksizlantirilgan qovurg‘alar soni;

— qovurg‘alararo mushaklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— o‘tkir o‘simtalar usti boylami (ligamentum supraspinale): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ko‘p bo‘lakli mushak (M. multifidus): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— trapetsiyasimon, rombsimon va keng orqa mushaklarining qismlari (Mm. trapezius, rhomboideus et latissimus dorsi): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Bel nimtasi (9123)

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bel nimtasi suyakli orqa-bel nimtasini (9121) birinchi bel umurtqasi bilan oxirgi ko‘krak umurtqasi oralig‘ida, kesimni oxirgi qovurg‘aning orqa cheti orqali davom ettirish yo‘li bilan orqa qism nimtasi va bel nimtasiga ajratish natijasida olinadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— o‘tkir o‘simtalar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yog‘: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz bel nimtasi (9223)

Suyaksiz bel nimtasi suyakli bel nimtasidan (9123) ilik to‘qimasini kesib, umurtqalarning o‘tkir o‘simtalarini olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— o‘tkir o‘simtalar usti boylami (ligamentum supraspinale): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— ko‘p bo‘lakli mushak (M. multifidus): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— o‘rta dumba mushagining bir qismi (M. gluteus medius): qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— filey: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Biqin nimtasi (9215)

Biqin nimtasi yarim tana go‘shtidan (9002) bel qismidan pastda joylashgan go‘sht qatlami sifatida olinadi. U yuzaki chov limfa tugunidan boshlanib, son-bo‘ksa konturi bo‘ylab oxirgi bel umurtqasi bilan chegaragacha, so‘ng umurtqa tanasidan 70 mm masofada bel umurtqalari bo‘ylab, oxirgi qovurg‘ani va qovurg‘a tog‘ayi konturini aylanib o‘tib, to‘sh suyagigacha davom etadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— qorinning tashqi qiyshiq mushagi (M. obliquus externus abdominis) yuzaki fastsiyasi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— qorinning tashqi qiyshiq mushagi ostidagi bezlar va yog‘ to‘planmalari: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Kurak nimtasi (9124)

Kurak nimtasi yarim tana go‘shtidan (9002) fastsiyalar bo‘ylab aylanasimon kesim yordamida ajratib olinadi: tashqi tomondan — kurak tog‘ayining yuqori cheti bo‘ylab yarim doira shaklida, ichki (medial) tomondan esa old oyoqlar bilan qovurg‘alar orasidagi tabiiy mushak oralig‘i bo‘ylab.

Ko‘rsatilishi lozim:

— kesimning kurak tog‘ayining yuqori uchidan boshlab uzunligi;

— paylar: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Old boldirsiz kurak nimtasi (9125)

Old boldirsiz kurak nimtasi kurak nimtasidan (9124) old boldirni yelka suyagi bilan bilak suyaklari orasidan o‘tuvchi chiziq bo‘ylab olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— kesimning kurak tog‘ayining yuqori uchidan boshlab uzunligi;

— paylar: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasi (9225)

Suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasi old boldirsiz kurak nimtasidan (9125) kurak suyagi va yelka suyagini olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

STANDARTLARNI MUQOBILLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH O‘ZBEKISTON DAVLAT QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Hosil bo‘lgan nimta barcha mushaklar va tabiiy yuzaki pardalar saqlangan holda quyidagi qismlarga ajratiladi:

— yelkaning uch boshli mushagi;

— tikansimon osti va deltasimon mushaklar;

— o‘stki tikansimon mushak;

— kurak nimtasining yelka qismi;

— kurak nimtasining ichki qismi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— paylar: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Yelkaning uch boshli mushagi (9227)

Yelkaning uch boshli mushagi suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasidan (9225), yelka suyagi bilan tirsak suyagi o‘rtasidagi uchburchak bo‘shliqni to‘ldirib turuvchi go‘shtni mushaklar butunligini va mushaklarning tabiiy shaklini saqlab turuvchi yuzaki pardani saqlagan holda ajratish yo‘li bilan tayyorlanadi.

U ponasimon shaklga ega bo‘lib, yelkaning uch boshli mushaklari guruhini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

O‘stki tikansimon mushak (9229)

O‘stki tikansimon mushak suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasidan (9225) olinadi. U butun o‘stki tikansimon chuqurchani to‘ldiruvchi konussimon mushak bo‘lib, yelka suyagi bo‘rtiqlarida tugaydi. Silindrsimon shaklga ega.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Tikansimon osti va deltasimon mushaklar (9231)

Tikansimon osti va deltasimon mushaklar suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasidan (9225) olinadi. Ular kurak suyagining tashqi (lateral) tomonida joylashgan bo‘lib, butun tikansimon osti chuqurchasini to‘ldiradi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Kurak nimtasining ichki qismi (9232)

Kurak nimtasining ichki qismi suyaksiz, old boldirsiz kurak nimtasidan (9225) tayyorlanadi. U kurak suyagining medial yuzasida joylashgan bo‘lib, kurak osti chuqurchasini to‘ldiruvchi kurak osti mushagi va katta yumaloq mushakdan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— qorin tomondagi tishsimon mushak: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Kurak nimtasining yelka qismi (9233)

Kurak nimtasining suyaksiz yelka qismi suyaksiz kurak nimtasining pastki qismidan (9225) tayyorlanadi. U yelkaning ikki boshli mushagi va yelka mushagidan iborat bo‘ladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Old boldir nimtasi (9126)

Old boldir nimtasi kurak nimtasidan (9124) tayyorlanadi. U yelka suyagining distal uchidan o‘tuvchi va yelka suyagi bilan bilak suyaklari o‘rtasidan o‘tadigan chiziq bo‘ylab ajratiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mazkur nimta nur suyagi/tirsak suyagi va ularga tegishli bukuvchi hamda yozuvchi mushaklarni o‘z ichiga olishi lozim.

Suyaksiz old boldir nimtasi (9226)

Suyaksiz old boldir nimtasi old boldir nimtasini (9126) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. U old oyoqlarning bukuvchi va yozuvchi mushaklarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— paylar/boylamlar: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

To‘sh va qovurg‘a nimtasi (9127)

To‘sh va qovurg‘a nimtasi old chorak tana go‘shtidan (9120) orqa-bel nimtasi (9121), bo‘yin nimtasi (9130) va kurak nimtasi (9124) olib tashlangandan keyin tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— qovurg‘alar soni;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yuzaki fastsiya: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— keng orqa mushagi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— qorin tomondagi tishsimon mushak: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yog‘ qoplami: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

To‘sh nimtasi (9129)

To‘sh nimtasi old chorak tana go‘shtidan (9120) yoki to‘sh va qovurg‘a nimtasidan (9127) haqiqiy va soxta qovurg‘alar tutashgan chiziq bo‘ylab, to‘sh suyagining birinchi segmentidan boshlab qovurg‘a tog‘aylari orqali sakkizinchi qovurg‘agacha kesish yo‘li bilan tayyorlanadi.

Qovurg‘a nimtasi (9128)

Qovurg‘a nimtasi to‘sh va qovurg‘a nimtasidan (9127) to‘sh nimtasi (9129) olib tashlangandan keyin tayyorlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— qovurg‘alar soni;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yuzaki fastsiya: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— keng orqa mushagi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— qorin tomondagi tishsimon mushak: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— yog‘ qoplami: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Suyaksiz qovurg‘a nimtasi (9228)

Suyaksiz qovurg‘a nimtasi qovurg‘a nimtasini (9128) suyaksizlantirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Ko‘krak mushaklarining medial tomonida joylashgan yog‘ to‘qimasi olib tashlanadi. Qorinning o‘rta chizig‘idagi oq tolali to‘qima (linea alba) olib tashlanadi.

Ko‘rsatilishi lozim:

— suyaksizlantirilgan qovurg‘alar soni;

— qovurg‘alararo mushaklar: qoldirilgan yoki olib tashlangan;

— diafragma: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Filey (9201)

Filey orqa chorak tana go‘shtidan (9110) tayyorlanadi va oxirgi qovurg‘alardan boshlab son-bo‘ksa qismigacha, bel umurtqalarining qorin yuzasi bilan yonbosh suyagining yon yuzasi orasidagi chiziq bo‘ylab bir butun holda ajratib olinadi.

Kichik bel mushagi olib tashlanmaydi.

Ko‘rsatilishi lozim:

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZHA9BXN - 28.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

— yog‘: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— biriktiruvchi to‘qima: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— yonbosh mushagi: qoldirilgan yoki olib tashlangan;
— kichik bel mushagi va belning kvadrat mushagi: qoldirilgan yoki olib tashlangan.

Kichik bel mushagisiz filey (9202)

Filey (9201) kichik bel mushagini olib tashlash yo‘li bilan trimlanadi.

5.5 Kiyik go‘shtidan ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan suyaksiz go‘shtning yirik qadoqlari ta’rifi

Ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan yirik qadoqlar odatda quyidagi tarkibiy qismlardan shakllantiriladi:

— nimtalar yoki nimtalarning qismlari;
— asosiy nimtalarni tayyorlash jarayonida hosil bo‘ladigan trimlash qoldiqlari;
— suyaksiz old yoki orqa chorak tana go‘shtlari;
— bo‘laklarning eng kichik o‘lchami belgilanishi mumkin;
— kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori belgilangan yirik qadoqlar;
— vizual baholangan yog‘siz go‘sht miqdori belgilangan yirik qadoqlar.

Kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori kimyoviy usulda aniqlangan yog‘ miqdiri chiqarib tashlangan umumiy go‘sht miqdori sifatida ta’riflanadi va odatda foizlarda ifodalanadi.

Vizual baholangan yog‘siz go‘sht miqdori umumiy go‘sht miqdoridan yog‘ miqdorini vizual baholash asosida aniqlanadi va foizlarda ifodalanadi.

Kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori bo‘yicha tayyorlangan barcha yirik qadoqlardagi ishlab chiqarish go‘shti belgilangan ko‘rsatkichlarga muvofiq bo‘lishi lozim. Kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori to‘g‘risidagi ma’lumot aniq bo‘lishi hamda namunalar olish, sinovdan o‘tkazish va natijalarni qayd etishning ishonchli dasturi bilan tasdiqlanishi lozim.

Kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori odatda foizlarda ko‘rsatiladi, masalan: 85 % CL.

Ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan go‘shtdagi kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdorini aniqlash usuli xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim.

Vizual yoki kimyoviy aniqlangan yog‘siz go‘sht miqdori qadoqda va unga ilova qilinadigan hujjatlarda yog‘siz go‘shtning yog‘ga nisbatan foizi sifatida ko‘rsatiladi.

5.6 Kiyik go‘shtining standart asosiy nimtalari uchun mushaklar bo‘yicha ma’lumotnoma

5.6.1 Tana go‘shti tuzilishining lateral/medial ko‘rinishlari

5.6.2 Mushaklar nomlarining alifbo tartibidagi ro‘yxati

Mushaklar nomlarining alifbo tartibidagi ro‘yxati*

Kod	Mushak nomi
0001	Sonning yaqinlashtiruvchi mushagi (M. adductor femoris)
0002	Tirsak mushagi (M. anconaeus)
0003	Tizza bo‘g‘imi mushagi (M. articularis genu)
0004	Yelkaning ikki boshli mushagi (M. biceps brachii)
0005	Sonning ikki boshli mushagi (M. biceps femoris) (sinonimi: M. gluteobiceps)
0006	Yelka mushagi (M. brachialis)

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

0007	Yelka-bosh mushagi (M. brachiocephalicus)
0008	Tumshuqsimon-yelka mushagi (M. coracobrachialis)
0009	Kurak-yelka teri mushagi (M. cutaneus omobrachialis)
0010	Tana teri mushagi (M. cutaneus trunci)
0011	Deltasimon mushak (M. deltoideus)
0012	Diafragma (M. diaphragma)
0013	Bilakning qiyshiq yozuvchi mushagi (M. extensor carpi obliquus)
0014	Bilakning nur suyagi yozuvchi mushagi (M. extensor carpi radialis)
0015	Bilakning tirsak suyagi yozuvchi mushagi (M. extensor carpi ulnaris)
0016	To‘rtinchi barmoqning xususiy yozuvchi mushagi (M. extensor digiti quarti proprius)
0017	To‘rtinchi barmoqning xususiy yozuvchi mushagi, orqa oyoq (M. extensor digiti quarti proprius (pedis))
0018	Uchinchi barmoqning xususiy yozuvchi mushagi (M. extensor digiti tertii proprius)
0019	Uchinchi barmoqning xususiy yozuvchi mushagi, orqa oyoq (M. extensor digiti tertii proprius (pedis))
0020	Barmoqlarning umumiy yozuvchi mushagi (M. extensor digitorum communis)
0021	Barmoqlarning uzun yozuvchi mushagi (M. extensor digitorum longus)
0022	Bilakning nur suyagi bukuvchi mushagi (M. flexor carpi radialis)
0023	Bilakning tirsak suyagi bukuvchi mushagi (M. flexor carpi ulnaris)
0024	Barmoqlarning uzun bukuvchi mushagi (M. flexor digitorum longus)
0025	Barmoqlarning chuqur bukuvchi mushagi (M. flexor digitorum profundus)
0026	Barmoqlarning chuqur bukuvchi mushagi (M. flexor digitorum profundus)
0027	Barmoqlarning yuzaki bukuvchi mushagi (M. flexor digitorum sublimis)
0028	Bosh barmoqning uzun bukuvchi mushagi (M. flexor hallucis longus)
0029	Ikki boshli boldir mushagi (M. gastrocnemius)
0030	Qo‘shimcha dumba mushagi (M. gluteus accessorius)
0031	O‘rta dumba mushagi (M. gluteus medius)
0032	Chuqur dumba mushagi (M. gluteus profundus)
0033	Nozik mushak (M. gracilis)
0034	Yonbosh mushagi (M. iliacus)
0035	Qovurg‘a-yonbosh mushagi (M. iliocostalis)
0036	Tikansimon osti mushagi (M. infraspinatus)
0037	Tashqi va ichki qovurg‘alararo mushaklar (Mm. intercostales externus et internus)
0038	Bo‘yinning ko‘ndalang o‘simtalariaro mushaklari (Mm. intertransversarii cervicis)
0039	Uzun ko‘ndalang o‘simtalararo mushak (M. intertransversarius longus)
0040	Quymich-g‘ovak tanasi mushagi (M. ischiocavernosus)
0041	Keng orqa mushagi (M. latissimus dorsi)
0042	Qovurg‘alarni ko‘taruvchi mushaklar (M. levatores costarum)
0043	Bo‘yinning eng uzun mushagi (M. longissimus cervicis)
0044	Bosh va atlasning eng uzun mushaklari (Mm. longissimus capitis et atlantis)
0045	Orqaning eng uzun mushagi (M. longissimus dorsi)
0046	Boshning uzun mushagi (M. longus capitis)
0047	Bo‘yinning uzun mushagi (M. longus colli)
0048	Bo‘yinning ko‘p bo‘lakli mushaklari (M. multifidi cervicis)
0049	Orqaning ko‘p bo‘lakli mushaklari (M. multifidi dorsi)
0050	Boshning kaudal qiyshiq mushagi (M. obliquus capitus caudalis)
0051	Qorinning tashqi qiyshiq mushagi (M. obliquus externus abdominis)

STANDARTLAR INSTITUTI#GQZZRA95XN - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

0052	Qorinning ichki qiyshiq mushagi (M. obliquus internus abdominis)
0053	Tashqi va ichki yopuvchi mushaklar (Mm. obturator externus et internus)
0054	Kurak-ko‘ndalang o‘simta mushagi (M. omotransversarius)
0055	Taroqsimon mushak (M. pectineus)
0056	Chuqur ko‘krak mushagi (M. pectoralis profundus)
0057	Yuzaki ko‘krak mushagi (M. pectoralis superficialis)
0058	Uzun kichik boldir mushagi (M. peronaeus longus)
0059	Uchinchi kichik boldir mushagi (M. peronaeus tertius)
0060	Tizza osti mushagi (M. popliteus)
0061	Preputsiyani oldinga tortuvchi mushak (M. protractor praeputii)
0062	Katta bel mushagi (M. psoas major)
0063	Kichik bel mushagi (M. psoas minor)
0064	Qorinning to‘g‘ri mushagi (M. rectus abdominis)
0065	Boshning katta dorsal to‘g‘ri mushagi (M. rectus capitis dorsalis major)
0066	Sonning to‘g‘ri mushagi (M. rectus femoris)
0067	Ko‘krakning to‘g‘ri mushagi (M. rectus thoracis)
0068	Rombsimon mushak (M. rhomboideus)
0069	Dumg‘aza-dumning dorsal va lateral mushaklari (Mm. sacrococcygeus dorsalis et lateralis)
0070	Tikuvchi mushak (M. sartorius)
0071	Dorsal narvonsimon mushak (M. scalenus dorsalis)
0072	Ventral narvonsimon mushak (M. scalenus ventralis)
0073	Yarim pardasimon mushak (M. semimembranosus)
0074	Boshning yarim tikansimon mushagi (M. semispinalis capitis)
0075	Yarim payli mushak (M. semitendinosus)
0076	Kaudal dorsal tishsimon mushak (M. serratus dorsalis caudalis)
0077	Kranial dorsal tishsimon mushak (M. serratus dorsalis cranialis)
0078	Bo‘yinning ventral tishsimon mushagi (M. serratus ventralis cervicis)
0079	Ko‘krakning ventral tishsimon mushagi (M. serratus ventralis thoracis)
0080	Kambalasimon mushak (M. soleus)
0081	Orqaning tikansimon mushagi (M. spinalis dorsi)
0082	Tasmali mushak (M. splenius)
0083	To‘sh-bosh mushagi (M. sternocephalicus)
0084	Kurak osti mushagi (M. subscapularis)
0085	O‘stki tikansimon mushak (M. supraspinatus)
0086	Bilak fastsiyasini taranglashtiruvchi mushak (M. tensor fasciae antibrachii)
0087	Sonning keng fastsiyasini taranglashtiruvchi mushak (M. tensor fasciae latae)
0088	Katta yumaloq mushak (M. teres major)
0089	Kichik yumaloq mushak (M. teres minor)
0090	Oldingi katta boldir mushagi (M. tibialis anterior)
0091	Orqa katta boldir mushagi (M. tibialis posterior)
0092	Qorinning ko‘ndalang mushagi (M. transversus abdominis)
0093	Bo‘yinning trapetsiyasimon mushagi (M. trapezius cervicalis)
0094	Ko‘krakning trapetsiyasimon mushagi (M. trapezius thoracis)
0095	Yelkaning uch boshli mushagi, lateral boshi (M. triceps brachii caput laterale)
0096	Yelkaning uch boshli mushagi, uzun boshi (M. triceps brachii caput longum)
0097	Yelkaning uch boshli mushagi, medial boshi (M. triceps brachii caput mediale)
0098	Oraliq keng mushak (M. vastus intermedius)

STANDARTLAR INSTITUTI QQZZRASHUN | 05.08.2026 | O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

0099	Lateral keng mushak (M. vastus lateralis)
0100	Medial keng mushak (M. vastus medialis)

* Ko‘rsatkichda keltirilgan to‘rt xonali raqamlar shtrix-kodlash talablarini qondirish uchun kiritilgan. Keyingi sahifalarda mushaklarning tasvirlari raqamlar bo‘yicha tartiblangan holda keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Boshqa tuzilmalar

Kod	Tuzilma nomi
0101	Birinchi bo‘yin umurtqasining limfa tuguni
0102	Quymich limfa tuguni
0103	Ensa boylami
0104	Suyak usti pardasi
0105	Kurak oldi limfa tuguni
0106	Kurak suyagi
0107	Kurak tog‘ayi
0108	Yonbosh osti limfa tuguni

5.7 Go‘sht sifati standartlari

Go‘sht va yog‘ malakali baholovchilar tomonidan kiyik tana go‘shti yarim nimtasining beshinchi va o‘n uchinchi qovurg‘alari oralig‘idagi ko‘z mushagi sohasi bo‘yicha go‘sht va yog‘ rangini taqqoslash orqali baholanadi.

Bunday baholashlar quyida keltirilgan go‘sht va yog‘ rangining etalon standartlari asosida amalga oshiriladi.

5.7.1 Go‘sht rangi bo‘yicha etalon standartlar

Go‘sht rangi beshinchi qovurg‘adan o‘n uchinchi qovurg‘agacha bo‘lgan istalgan sohada baholanishi mumkin.

Agar aniq ustun rang mavjud bo‘lmasa, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan eng to‘q rang baholanadi va tegishli ball bilan baholanadi.

Agar go‘sht rangi ikkita etalon standart oralig‘iga to‘g‘ri kelsa, tana go‘shtiga etalon standartlarning nisbatan to‘qrog‘iga mos keladigan raqam beriladi.

Ranglar faqat yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi va baholash maqsadlari uchun majburiy mezon hisoblanmaydi.

5.7.2 Yog‘ rangi bo‘yicha etalon standartlar

Yog‘ rangi beshinchi qovurg‘adan o‘n uchinchi qovurg‘agacha bo‘lgan istalgan sohada baholanishi mumkin.

Agar yog‘ rangi ikkita etalon standart oralig‘iga to‘g‘ri kelsa, tana go‘shtiga etalon standartlarning nisbatan sarg‘ishrog‘iga mos keladigan raqam beriladi.

Ranglar faqat yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi va baholash maqsadlari uchun majburiy mezon hisoblanmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #GQZZRA95XN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI